

**“Mikrokreditbank” ATB Boshqaruv Raisining
Korrupsiya holatlarini oldini olish va bu borada tizimli kurashish
yuzasidan bank xodimlariga yo‘llagan**

MUROJAATI

Hurmatli hamkasblar!

Ma’lumki, korrupsiya jamiyatning demokratiya va adolat tamoyillari ustuvorligiga jiddiy putur yetkazib, inson huquqlari buzilishiga, qadr-qimmatini toptalishiga olib keladi hamda davlat va jamiyat taraqqiyotiga to’sqinlik qilib, fuqarolar turmush darajasini yomonlashtiradi.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashishda bank xodimlari ham faollik ko‘rsatishlari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga chek qo‘yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yaratmaslik, eng asosiysi bunday harakatlar uchun javobgarlikning muqarrarligini chuqur anglamog‘i lozim.

Bank xodimlari tomonidan mijozlarga moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish jarayonidagi ta’magirlik qilishlari, poraxo‘rlik, mansab mavqeini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq xarakatlarning sodir etilishi mijozlarimizning bankka bo‘lgan ishonchiga va butun jamoamizga jiddiy putur yetkazadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, jamiyatimizning barcha a’zolari **“halollik vaksinasi”** bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Shuning uchun barchamiz bugungi tinchlik-osoyshtalik hukm surgan yurtimizda adolat tamoyillari asosida halol mehnat qilishimiz zarur va shart.

Darhaqiqat, **“halollik vaksinasi”** inson ongi va qalbida shakllanadigan korrupsiyaga qarshi nafrat tuyg‘usi va faol qarshiligida namoyon bo‘ladi. Har qanday inson ongiga **“halollik vaksinasi”** yoshligidan singdirib borilmog‘i lozim. U tarbiya va ta’lim ko‘rinishida amalga oshiriladi. Demak, har bir bank xodimi o‘z ishini halol, bank xizmatlarini xolis bajarsa, u **“halollik vaksinasi”** bilan emlangan bo‘ladi.

Bugun bankimiz faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta’minlash hamda xodimlarimiz mas’uliyatini oshirish, byurokratiyaga chek qo‘yish va bank xizmatlarini soddalashtirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan turli mexanizmlar amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Buning uchun albatta, o‘zini shu bank jamoasining bir a’zosiman deb bilgan xodimlarning har biri avvalo o‘zi namuna bo‘lib, qolaversa jamoadagi shogirdlari va hamkasblariga ham korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid

huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini tushuntirmog'i lozim.

Shu o'rinda, men bank Boshqaruvi Raisi sifatida bankimizda faoliyat olib borayotgan 4 mingga yaqin xodimlardan mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida eng avvalo, vijdonan, halollik bilan sifatli xizmat ko'rsatishlarini, har qanday vaziyatda hattoki yuqori turuvchi rahbarlari noqonuniy topshiriq bergan taqdirda ham qonun hujjatlari va ichki meyyoriy hujjatlar doirasidan chetga chiqmasliklarini talab qilaman.

Qolaversa, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bankimizda 1 121 ta mahallaga yangi tizim asosida 332 ta "mahalla bankiri" shtat birligi ochildi hamda 1121 nafar yordamchi-agentlar yollandi.

Ushbu xodimlardan ham o'z ish faoliyatida qonun buzilish va korrupsion holatlariga yo'l qo'ymasliklarini, xizmat vazifalarini vijdonan bajarishlarini va har bir ishimizga mas'uliyat bilan yondoshishlarini so'rayman.

Aziz hamkasblar!

Yurtboshimiz tomonidan bizga katta ishonch bildirilib, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholini kambag'allikdan chiqarish kabi muhim vazifalar topshirilgan. Ushbu ishlarni bajarish uchun halol va fidoyilik, vatanni sevish tadbirkorlar va aholini qiynayotgan masalalarga qonuniy yechimlar topish orqali har tomonlama ko'mak berish talab qilinadi.

Murojaatim yakunida sohada mehnat qilayotgan xodimlardan tizimda korrupsion holatlar kuzatilganda yoki shubha tug'diruvchi va noqonuniy holatlar yuz berganida, aloqa kanallarimiz orqali murojaat qilishlarini so'rayman.

E'tiboringiz uchun rahmat!

Orif Butayev,
"Mikrokreditbank" ATB Boshqaruv raisi.